

**2025 yilda amalga oshirilgan import hajmi hamda importni qisqartirish
bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida
MA'LUMOT**

ИНФОРМАЦИЯ

**об объемах импорта и принятых мерах по сокращению импорта
за 2025 год**

I. Kombinat tomonidan amalga oshirilgan import tahlili.

2025 yilda kombinat bo'yicha mahsulot va xizmatlar importi hajmi **70,3** mln. dollarni tashkil etdi.

“Navoiy KMK” AJ ning mahsulot va xizmatlar importi tarkibi quyidagicha:

1. Mashina va uskunalar – 4.2 mln. doll. (6,0%);
2. Butlovchilar va ehtiyot qismlar – 39,6 mln. dollar (56,3%),
shu jumladan:
 - ichki yonuv dvigatellari (18,9 mln. dollar),
 - kon texnikasiga ehtiyot qismlar (20,7 mln. dollar).
3. Hom-ashyo va materiallar (og'ir yuk ko'taradigan kon-shaxta texnikasi uchun shinalar, oltin namunalari) – **0,7** mln. dollar (0,9 %);
4. Xizmatlar – **25,8** mln. dollar (36,8%).

Kombinatning asosiy faoliyatiga taalluqli bo'lmagan, Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqariladigan mahsulotlar importi amalga oshirilmadi.

II. Kombinat bo'linmalari quvvatlarida mahalliyashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish.

2025-yilda mahalliyashtirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha tasdiqlangan rejaga muvofiq, joriy yil mobaynida 184 ta (grafik bo'yicha 184 ta) loyiha bo'yicha **1 406,7** mlrd.so'mlik yoki davr prognoziga nisbatan **103,1** %ga mahsulotlar ishlab chiqarilib, 2024 yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **153,6** %ni tashkil etdi.

Xususan, dastur doirasida yangi turdagi yirik maydalash tegirmoni, dozalash nasosi, havo-chang zarralarini tortish uskunasi, issiqlik almashinuv uskunasi, yangi turdagi ekskavator butlovchi va ehtoyot qismlari kabi yangi turdagi importga o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarildi.

III. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan kooperasiya aloqalarini kengaytirish va kooperasiya hisobiga importni optimallashtirish.

2025 yilda sanoat kooperasiyasi doirasida mahalliy ishlab chiqaruvchilardan xarid qilingan sanoat mahsulotlar hajmi **7 303,2** mlrd. soʻmni va 2024 yilning mos davriga nisbatan **117,0** % ni tashkil etdi.

Kombinat tomonidan xarid qilinishi koʻzda tutilgan, kelib chiqishi import boʻlgan tovarlar toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni elektron kooperasiya portalida toʻliq oʻrganish orqali maʼlumotnoma shakllatirilgach xaridlar amalga oshirilmoqda.

“NKMK” AJ tomonidan 2025-yil davomida hududiy va tarmoqlararo sanoat yarmarkalarida faol ishtirok etilib, mahalliy korxonalar bilan **3,1 trln.**soʻmlik hamkorlik shartnomalari tuzildi.

“Navoiy KMK” AJ importni qisqartirish va ishlab chiqarishni rivojlantirish boʻyicha ishlarni davom ettirish va xaridlar shaffofligini oshirish boʻyicha doimiy choralar koʻrilmoqda.